

BOSHLANG‘ICH SINFLARDA OT SO‘Z TURKUMINI O‘RGATISH

*Y.Djo‘rayev - Angren universiteti o‘qituvchisi
G. Jo‘raboyeva, M.Sulaymonova - Angren universiteti
“Boshlang‘ich ta‘lim” yo‘nalishi 1-bosqich talabalari*

Annotatsiya: Boshlang‘ich sinf o‘quvchilariga ot so‘z turkumini, og‘zaki va yozma nutqda ulardan to‘g‘ri foydalanishni o‘rgatish. O‘quvchilarning so‘z boyligini oshirish, to‘g‘ri fikrlash, o‘z fikrini bildira olish qobiliyatini rivojlantirishda bevosita xizmat qiladi. Ushbu maqola ot so‘z turkumini boshlang‘ich sinf o‘quvchilariga o‘rgatish metodikasi yoritilgan.

Kalit so‘zlar: ot so‘z turkumi, o‘rgatish mohiyati, atash ma’nosni, shaxs otlari, leksik-grammatik.

Boshlang‘ich sinflarda ot so‘z turkumini o‘qitish metodikasi o‘quvchilarning og‘zaki va yozma nutqini rivojlantirishda muhim ahamiyatga ega. Bu jarayon o‘quvchilarning so‘z boyligini oshirish, fikrlash qobiliyatini shakllantirish va grammatik tushunchalarni ongli ravishda o‘zlashtirishlariga xizmat qiladi. Ot so‘z turkumini o‘rgatishning bosqichlari:

1. Tayyorlov bosqichi (1-sinf): Savod o‘rgatish davrida o‘quvchilar predmetlarni va ularning nomlarini bildiruvchi so‘zlarni farqlashga o‘rganadilar. Bu bosqichda so‘zlearning leksik ma’nosiga e’tibor qaratilib, ularni guruhlash ko‘nikmasi shakllantiriladi.

2. Boshlang‘ich tushuncha shakllantirish (2-sinf): O‘quvchilar otlarning leksik ma’nolari va grammatik belgilari bilan tanishadilar. Kim? va nima? so‘roqlariga javob bo‘lgan otlarni farqlash, atoqli va turdosh otlar haqida bilimlar hosil qilinadi.

3. Chuqurlashtirish bosqichi (3-sinf): Bu bosqichda otlarning birlik va ko‘plik shakllari, ularning qo‘llanilishi o‘rganiladi. O‘quvchilar otlarning son bilan bog‘liq xususiyatlarini tushunib, gapda to‘g‘ri qo‘llashni o‘rganadilar.


4. Turlanish va qo‘llash (4-sinf): O‘quvchilar otlarning egalik qo‘srimchalari bilan qo‘llanilishi, kelishiklar bilan turlanishi va kelishik qo‘srimchalarining yozilishini o‘rganadilar. Bu bosqichda otlarning gapdagi vazifalari chuqurroq tahlil qilinadi.

Ona tili darsi o‘quvchilar tafakkurini o’stirish ustida ishslash maqsadiga yo‘naltirilganligiga qarab baholanadi. Boshlang‘ich sinf o‘quvchilarni ot so‘z turkumiga o‘rgatish jarayoni savodga o‘rgatishdan boshlanadi. Bu davrda “Alifbe” kitobiga tushurilgan suratlar misol bo‘ladi. Kitobdagagi suratlarni ko‘rsatib bolaga Bu kim? Bu nima? deb so‘roqlar yordamida ot so‘z turkumini o‘rgatish mumkin. Aynan birinchi va ikkinchi sinflarda so‘z turkumi sifatida otning belgilari o‘rgatiladi. Uchinchi sinfda esa otga atama beriladi, birlik va ko‘plikda qo‘llanilishi

o'zlashtirishiga ahamiyat beriladi. To'rtinchi sinfda esa otning egalik qo'shimchalari bilan qo'llanishi kelishiklar bilan turlanishi va kelishik qo'shimchalarining yozilishini o'rgatishga e'tibor qaratiladi.

Karima Qosimovaning fikricha, "Til hodisasi sifatida otning xususiyatlari, uni o'rganish vazifalari, o'quvchilarning yosh xususiyatlarini hisobga olgan holda, har bir sinf uchun material hajmi, ularning o'rganish izchiligi belgilangan"¹.

1-sinfda "Ot" so'z turkumini o'rgatish jarayoni savod o'rgatish davriga to'g'ri keladi. Bu jarayonda o'quvchilar shaxs-narsa va buyumlar nomi bo'lgan so'zlarni farqlashni o'rganadilar, ya'ni o'quvchilar so'zning leksik ma'nosiga e'tibor ko'proq qaratiladilar va ma'nolarini hisobga olgan holda so'zlar (narsalar, hayvonlar va shaxs nomini, meva va sabzavotlar, kiyimlar va hokazolarni bildirgan otlar) ni guruhlash ko'nikmasi shakllantiriladi. Ot so'z turkumidagi leksik ma'nodagi so'zlarni guruhlash mashqlari yordamida otlarni taqqoslash, so'zlarni o'xshash tomonlarini aniqlash va ularni umumlashtirish ko'nikmasini o'stiradi. Shunga qaramay, grammatik tushunchani shakllantirish uchun o'quvchilar so'zning aniq ma'nosini yetarli darajada bilmaydilar, so'zning leksik ma'nosini bilish bilan birgalikda uning grammatik belgilarini ham o'zlashtirish kerak. O'quvchilar keyingi bosqichda otning leksik ma'nolari va grammatik belgilari ustida maxsus tayyorgarlik ko'rishadi (kim? so'rog'iga shaxs, nima? so'rog'iga narsa va hayvonlar javob bo'lishi, tushuntiriladi). O'quvchilar kim? yoki nima? so'rog'iga javob bo'lgan otlarni farqlashni va ularga so'roq berib ajratishni dars davomida mashqlar orqali o'rganib boradilar. O'quvchilarda grammatikani bilish tafakkuri o'sa boradi, ularda atoqli otlarni bosh harf bilan yozish ko'nikmasi shakllana boradi.



¹ Qosimova K.T.: 2009-yil. 248-b.

“Yomg‘ir” metodi o‘quvchilarning bilimi va fikrlashini faollashtirish uchun qo‘llanadigan interfaol usul. Bu metodda ma‘lumotlar birdaniga katta hajmda berilmaydi balki yomg‘ir tomchilari kabi mayda bo‘laklarga bo‘linib tushuntiriladi. Har bir kichik qism o‘quvchilar tomonidan qabul qilinib mustahkamlanadi. tomchilarda berilgan so‘zlarni to‘g‘ri joylashtirishi kerak bo‘ladi.

2-sinf o‘quvchilariga otlarning leksik ma‘nosi, atoqli va turdosh otlar haqidagi bilim chuqur o‘rgatila boriladi. “Ot” tushunchasini o‘quvchilarda shakllantirish uchun shu so‘z turkumiga kiradigan otlarni leksik guruhlarga ajratish va barcha otlarga xos bo‘lgan belgilarni va ularning nutqimizda qo‘llash o‘rni muhim ahamiyatga ega. Shu maqsadda mavzuni o‘rganishga bag‘ishlangan birinchi darslardayoq shaxs va narsani bildiradigan so‘zlar bir tizimga solinadi, kishilarni, buyum, o‘simpliklar va hayvonlarni, tabiat hodisalarini, voqealarni bildiradigan so‘zlar guruhga ajratiladi. Shu so‘zlearning hammasi uchun umumiyl belgilarni aniqlanadi: bu so‘zlar shaxs, narsalarni bildirib kim? yoki nima? so‘rog‘iga javob bo‘ladi.

“Kim ko‘p ot topadi”

Bu metod 2-sinf o‘quvchilari uchun ot so‘z turkumini o‘rgatishda juda foydali va qiziqarli metod hisoblanadi.

O‘yinni o’tkazish tartibi:

- 1) Sinf ikki yoki uch guruhga bo‘linadi;
- 2) O‘qituvchi yoki o‘quvchilardan biri ma’lum bir mavzu aytadi. Masalan: a) Hayvonlar nomlari b) Matabda uchraydigan narsalar
- 3) Har bir guruh yoki o‘quvchi berilgan mavzu bo‘yicha otlarni yozadi yoki aytadi;
- 4) Kim ko‘proq ot yozsa yoki aytsa, o‘sha jamoa g‘olib bo‘ladi.

O‘yin variantlari:

- Qog ‘ozga yozish - o‘quvchilar daftarga ot so‘z turkumiga mansub so‘zlar yozadi, o‘yin tugagach o‘qituvchi so‘zlarni sanaydi;
- Og‘zaki aytish – guruhsar navbatma-navbat ot so‘z turkumiga oid so‘zlar aytishadi, so‘z topa olmagan guruh o‘yindan chiqadi;

O yinning foydasi:

- O‘quvchilarning lug‘at boyligi ortadi;
- Diqqati va fikrlash tezligi rivojlanadi;
- O‘z fikrini aniq ifodalashga o‘rganadilar;
- Jamoaviy ishslash va raqobat muhiti yaratiladi.

3-sinfda ”Otlar, ya’ni otlarning birlik va ko‘plikda qo‘llanishi” ustida ishslash jarayonida o‘quvchilarda:

- 1)birlik va ko‘plikda qo‘llangan otlarning ma‘nosi va qo‘shimcha orqali farqlash;

2) birlikdagi otdan ko‘plik shaklidagi va aksincha, ko‘plikdagi otdan birlik sondagi ot hosil qilish;

3) gapda so‘zlarining bog‘lanishini hisobga olgan holda, otlardan nutqda to‘g‘ri foydalana olish ko‘nikmasi shakllantiriladi. Otlarning birlik va ko‘plikda qo‘llanishi taqqoslash usulidan foydalanib tushuntiriladi. Buning uchun bir predmetni va shunday bir nechta predmetni bildirgan otlar taqqoslanadi: daftar-daftarlar, qalam-qalamlar, nok-noklar kabi. Suhbat asosida daftar nechta (bitta) predmetni va daftarlar so‘zi nechta (ikki va undan ortiq) predmetni bildirishi aniqlanadi. Boshqa so‘zlar bilan ham shunday ishlanadi. Oddiygina xulosa chiqariladi va fikrlar umumlashtiriladi: agar otlar bir predmetni bildirsa, birlikda qo‘llanadi, agar ikki va undan ortiq shaxs yoki narsani bildirsa, ko‘plikda qo‘llanadi. Ko‘plikda otni yasash uchun birlikdagi otga -lar qo‘sishchasi qo‘shiladi. Birlikdagi otlar **kim?** yoki **nima?** so‘rog ‘iga, ko‘plikdagi otlar esa **kimlar?** yoki **nimalar?** so‘rog‘iga javob bo‘ladi.

“Rasmlar orqali o‘rganamiz”

1) O‘quvchilarga rasm ko‘rsatib “Bu nima” deb so‘raysiz. Masalan: Bu – mushuk;

2) So‘ngra shu rasmning ko‘plik shaklidagi variantini ko‘rsatib “Bu nima” deb so‘raysiz. Masalan: Bu – mushuklar;

Maqsad:

O‘quvchilar rasmlarni kuzatib ko‘plik qo‘sishchasing qanday qo‘shilishini anglaydi.

Didaktik o‘yin. “So‘z poyezdi”

O‘yin sharti:

- 1) O‘quvchilar 3 - 4 guruhga bo‘linadi;
- 2) Har bir guruhga turli so‘zlar yozilgan kartochkalar tarqatiladi. Masalan: (qush, uy, bola, daftar)
- 3) Guruhlar har bir so‘zni ko‘plik shakliga o‘tkazib yozishi kerak. Masalan: (qushlar, uylar, bolalar, daftarlari)
- 4) To‘g‘ri bajargan guruhga yulduzchalar beriladi. Eng ko‘p yulduzcha to‘plagan guruh g‘olib bo‘ladi.

Vizual yondashuv – rasmlar grafiklar va ko‘rgazmali qurollar orqali mavzuni tushuntirish bolalarning eslab qolish qobiliyatini oshiradi. Chunki bolalar vizual ma‘lumotlarni tezroq qabul qiladi va tushunadi.

Didaktik yondashuv – o‘yinlar va interaktiv mashg‘ulotlar orqali o‘quvchilarni faol ishtiroy etishga undaydi. O‘yinlar darsni jonli va qiziqarli qiladi, bu esa ularning mavzuni mustahkamlashiga yordam beradi.

4-sinfda ot ustida ishlashning asosiy vazifasi fikr bayon qilishda otning kelishik shakllaridan foydalanish va kelishik qo'shimchalarini to'g'ri yozishga o'rgatish hisoblanadi.

Bu sinfda ot quyidagi izchilikda o'rganiladi:

- 1) Otlarning kelishiklar bilan turlanishi haqida tushuncha berish;
- 2) Ko'plikdagi otlarning turlanishini o'rgatish;
- 3) Har bir kelishikning xususiyatlarini alohida o'rganish va u bilan bog'liq holda kelishik qo'shimchalarining yozilishi haqida ko'nikma hosil qilish.

Bundan kelib chiqib aytishimiz mumkinki, 4-sinfda ot so'z turkumi qo'shimchalarini o'rganish uchun, bu bosqichdan foydalangan holda mavzularni o'rgatish osonroq kechadi. Negaki, o'quvchilar bu jarayonga qadar ot so'z turkumi haqida chuqur bilimga ega va bu jarayonni o'rgatishda qiyinchilik bo'lmaydi.

Otlarning kelishik qo'shimchalari bilan o'zgarishi – turlanish haqida tushuncha berish bilan o'quvchilarga kelishik qo'shimchalari gapda so'zlarni bog'lash uchun xizmat qilishi, o'zbek tilidagi olti kelishik, ularning nomi, so'roqlari, qo'shimchalari va joylashish tartibi tushuntiriladi. O'quvchilar turlanish bilan kelishiklarning mohiyatidan kelib chiqib gapni tahlil qilish jarayonida tanishtiriladi, gapning asosi (ega va kesim) va so'z birikmalari ajratiladi. Ularda gapda bir otning boshqa har xil so'zlar bilan shakl yasovchi qo'shimchalar (ning, -ni, -ga, -da, -dan) yordamida bog'lanishni kuzatadilar, bu qo'shimchalar kelishik qo'shimchalari ekanini, otlarning kelishik qo'shimchalari bilan o'zgarishi **turlanish** deyilishini bilib oladilar.

"Oila daraxti"

"Guruh bilan ishslash"

- O'quvchilarning faol ishtirokga undash. Har bir guruh "Oila daraxti" chizadi va o'z qarindoshlarini yozadi.
 - Bu – mening bobom
 - Bu – mening buvim
 - Bu – mening akam

Shu orqali 1-2-3- shaxs egalik shakllari mustahkamlanadi.

Maqsad:

O'quvchilar so'zlarni turli shaxslarga mos ravishda o'zgartirishni mashq qiladi. O'quvchilar bu metoda ot egalik qo'shimchalarni oson va tezroq o'rganadi.

Xulosa qilib shuni aytishimiz joizki, boshlang'ich sinflarda ot so'z turkumini o'rgatish bu o'quvchilarning so'z turkumiga birinchi qadami hisoblanadi. O'quvchilarning so'z boyligini oshirishda, nutqini ravonligida, o'z fikrini boshqalarga yetkaza olishda, so'zlarni to'g'ri qo'llay olishda ot so'z turkumi katta ahamiyatga ega. O'quvchilar ot so'z turkumini o'rganish jarayonida shaxs va joy nomlarini, bosh harflarda yozish ko'nikmasini hosil qilishni o'rganadi. Shuning

uchun biz bo‘lajak boshlang‘ich sinf o‘qituvchilari o‘z mutaxassisligimizni chuqur o‘rganib, ertangi yosh avlodga chuqur bilim berib, qiziqishlaridan kelib chiqib to‘g‘ri yo‘lga boshlashimiz va kelajakda yurtimizga foydali mutaxassis bo‘lib yetishishga sababchi bo‘lmog‘imiz darkor.

Foydalanilgan adabiyotlar:

1. K.Qosimova va boshqalar. Ona tili o‘qitish metodikasi. – Toshkent “Nosir” nashriyoti 2009.
2. A.G‘ulomov va boshqalar. Ona tili o‘qitish metodikasi – Toshkent – 2012.